

**BOLALAR XULQ-ATVORINI KORREKSIYALASHNING PSIXOLOGIK  
VAZIFALARI**

***Turg'unova Hayotxon Xolmatovna***

*Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar*

*32-maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** *Ruhiy korreksiya – bu keng ma'noda amaliy ruhshunoslikning shunday shakli va usuldagi faoliyatki, bu faoliyat insonni ruhiy, aqliy va shaxsiy rivojlantirishdagi zaifliklarni tuzatishlarga qaratilgan bo'ladi. Psixologik korreksiya maxsus bo'lgan ma'nosi ruhshunos "nimani tuzatmoqchi" bo'lishiga bog'liqdir.*

**Kalit so'zlar:** *korreksiya, deviant, muloqot, psixokorreksiya, huquqbuzarlik, ruhshunos, psixoterapevt, o'smir, giyohvand, profilaktika.*

**KIRISH**

Psixologik korreksiya maxsus bo'lgan ma'nosi ruhshunos "nimani tuzatmoqchi" bo'lishiga bog'liqdir. Masalan: bilim olishga bo'lgan intilish korreksiya, deviant xulqining korreksiya, o'zaro muloqot kelishmovchiliklarning korreksiya. Ruhiy korreksiya, ruhiy konsultatsiya (maslahat berish) bilan uzviy bog'liq, u psixologiyani mustaqil bo'limidir. Aynan, yakka tartibdagi ruhiy maslahatlar turli hayotiy, shaxsiy va boshqa shu turdagi muammolari bor insonlarga yordam beradi. Maxsus tashkil etilgan muloqot-suhbat davomida psixolog yordamida shaxs o'zidagi bor kuchlarni safarbar qilaolishi mumkin. Aynan, shu qo'shimcha ruhiy kuch-quvvat va qobiliyat, insonning qiyin muammoli holatlardan chiqishga yordam beradi. Maslahat berish usullarini quyidagicha tuzish mumkin:

- Hayotiy ko'nikmalar, treninglar;
- Insonlarning o'zaro aloqalarining treningi;
- Muammoni hal qilish va muhim qaror qabul qilish treningi;
- Qobiliyatlarni yo'naltirish va rivojlantirish;
- O'zining rivojlantirishga, o'z ustida ishlashga yordam.

Bu usuldagi treninglardan guruh ichidagi va oilaviy ruhshunoslikda, ruhiy terapiyada foydalaniladi, shu usullar vositasida muammoli vaziyatga shaxsning boshqalar bilan kelisha olmaslik xususiyatlarini to'g'rilash kiritiladi (psixokorreksiya). Ruhiy korreksiya va rivojlanish kamchiliklarni tuzatish va shaxsning shakllanishi jarayonida yuz bergan me'yordan chiqishlarni hal qilish: shaxsning sog'lom ruhiy rivojlantirishga sharoit yaratish.

Korreksiyaning maqsad va vazifalari:

ruhiy rivojlantirish jarayonini to'g'irlash, o'quvchilarning salbiy fikr, xatti-harakatlariga o'zgartirish kiritish;

o'quvchilarning qiziqish, faolligini bilish jarayoniga bo'lgan intilishlarini rivojlantirish maqsadida ularning aqliy sustkashligini to'g'rilash;

bolalar va o'smirlarning ijtimoiy me'yorlarga, qadriyatlarga, o'z deviant xulqisabab, oqibatlariga, atrof-muhitga, maktab hayotiga moslasha olmaganliklarni to'g'rilanishi;

o'smirlarga, ularning ota-onalari, o'qituvchilariga, tarbiyachilarga ruhiy korreksiyaning shaxsni rivojlantirish uchun qanchalik muhimligini tushuntirish. Ruhiy maslahatlar – o'smirlarga, ota-onalarga, vasiy-homiylarga, o'qituvchi va tarbiyachilarga ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun ko'rsatiladigan ruhiy yordam. Ichki ruhiy quvvatni jamlay olishni o'rgatish.

Maslahatlarning maqsad vazifalari:

ota-onalarga bolalarning yoshiga va ijtimoiy ruhiy xususiyatlariga qarab savollariga javob berish ularning rivojlantirishdagi kamchiliklarni engib o'tib, to'g'rilab o'zgartirish;

o'smir o'g'il va qizlarga kattalar, tengdoshlari bilan kechadigan o'zaro muloqotlardagi qiyinchiliklari, shaxsiy, kasbiy muammolarni chetlab o'tishi haqida maslahat berish;

o'smirlarning o'z «men»ini shakllantirib, o'ziga hurmat bilan qarashni, o'z ustida ishlashni, o'zidagi kamchiliklarni amalda tuzatish ko'nikmalarini shakllantirishni o'zgartirish. Deviant xulqli o'smirlar va voyaga yetmagan huquq buzarlari bilan yakka tartibdagi korreksiya ishlarini quyidagi uslublarda olib borish tavsiya etiladi: 1. "Psixoterapevtikoyana" vositasi – o'zini tashqaridan ko'rishga imkoniyat yaratib, shartli ravishda o'zini tushunishni rivojlantirish;

"Muqobil yo'llar" vositasi – noto'g'ri axloq-odob me'yorlarini namoyon qilgan o'smirlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish;

"O'rniga-o'rin" vositasi – xarakterida, fe'l-atvoridagi bo'shanglik, iroda va kuchli ruhiy quvvat kabilari bilan o'rniga o'rin almashtirish, to'ldirish taklif qilinadi;

"Ijoiy ijtimoiy faoliyatni singdirish" vositasi – ruhshunosning salbiy dunyo qarashni o'zgartirib, ijobiy fikrlashga ta'sir qilishi;

"Ma'naviy immunitet hosil qilish" usuli – namunaviy, ideal axloq-me'yorlariga ega bo'lishni maktabdan, hayotdagi misollardan keltirish, ba'zi insonlarning salbiy ta'siriga qarshi immunitet hosil qilish;

"Ko'rsatmalar, qoidalar" usuli – oilaviy ruhiy terapiya vositasida oila a'zolarining qilishi kerak bo'lgan ishlari qonun-qoidasini belgilaydi. Shuningdek, deviant xulqning ayanchli oqibatlari haqida gapirish ham darkor. Deviant xulqli o'smirlarni o'z qilmishlarining yomon oqibatlari haqida iqror bo'lishga undash ham profilaktik ishlarning bir qismidir. Agar bunga o'smir rozi bo'lmasa, deviant xulqning

ayanchli oqibatlarini ta'sirini atrofdagi odamlar misolida tahlil qilish mumkin. Maslahat berayotgan ruhshunos o'z mijozini gunoh, uyat, alam, og'riq, dard, nafrat, g'azab, ojizlik, azoblanish tuyg'ularda ochiq iqrar bo'lishga o'rgatadi. O'smirni kelajakni deviant xulq bilan va u siz qarshi olish holatlarini tasvirlashga chaqirish yaxshi natija beradigan ruhiy vositadir. Masalan, ruhshunos mijozga uning kelajakdagi hayotini tasvirlashda spirtli ichimliklarni ayanchli oqibatlarini ko'rish va faraz qilishga chorlashi kerak. Ruhshunos (psixolog) yoki psixoterapevt nafaqat fikrlashga, balki o'z his-hayajonini ifoda qilib, olishga ham o'rgatadi. O'z kelajagini tasvirlash uchun kerakli iboralarni topa bilish foyda beradi. Agarda, o'smir o'z deviant xulqi siz kelajagini tasvirlaganda, ijobiy his-tuyg'uni namoyon qilsa, demak, shunday xulqqa erishish chora-tadbirlari dasturini tuzish maqsadiga muvofiq bo'ladi. O'zaro tushunishga erishilsa, kelishuv asosida psixoterapevtik muolajalarni olib boorish o'smirda butun muolaja davrida maqsadga intilib turishni ta'minlaydi. Kelishuv og'zaki yoki yozma kontrak tuzilib, unda faoliyatning maqsadi, usuli, sharti, muddati, shuningdek o'zaro manfaatli nuqtalari belgilanadi. Taraflar barchasi kontrakt shartini bajarishga mas'ul. Kontrakt shartlari buzilsa, nima bo'lishni taraflar kelishi bolgan bo'lishi kerak.

Mijozning muammosini ishlab chiqish asosiy ustuvor vazifadir. Mijoz maslahat beruvchi yordamida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilishi kerak. "Uning yomon xulq-atvorni namoyish qilishdan maqsadi nima?" "Bundan qanday qoniqish hosil qiladi?" "Deviant xulqdan ozod bo'lib, u nimani yo'qotadi?". Bu savollarga javob berishga o'smir qiynalishi mumkin. Agar o'smir ochiq muloqotga, ichidagi his-tuyg'ularni namoyish qilishga qarshilik qilsa, o'zini o'rganishning boshqa usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bu "men va giyohvandlik", "giyohvand moddalarsiz hayot" mavzudagi rasmlar bo'lishi mumkin.

Agar shaxs qat'iy turib muammolarni inkor etib, yaxshi tomonga o'zgarishni istamasa, faol bo'lganlarga murojaat qilinadi. Uning oilasi va referent guruhi (unga ta'sir qiluvchi odamlar) bunda hamkor bo'lishlari kerak. Ko'pchilik bo'lib, unga ta'sir qilish o'z samarasini beradi. Buning uchun deviant xulqli o'smirlar qadrli bo'lgan insonlar yig'iladi. Yig'ilganlar suhbatga alohida tayyorgarlik ko'rishadi. Bunda turli me'yordan chekinishlarni yaqqol namoyon qiluvchi hayotiy misollar keltiriladi. Ularning fojiiyaviy yakuni gapirib beriladi. O'smir bilan ishlashdan avval unga ta'sir etuvchi guruh repetitsiya o'tkazi boladi. Bu jarayonni shunday tashkillashtirish lozimki, barcha deviant xulqli o'smirlar uchun obro'ga ega guruh vakillari ta'sir kuchiga ega bo'lgan gaplarni ishlatib, o'smirning o'zini tanqid qilmagan holda, qayta tarbiyalasinlar. Keyinchalik o'smirlar tuzalish imkoniyatini beruvchi istalgan vositani tanlash imkoniyatini berish kerak. Ba'zi hollarda, nechog'liq og'ir bo'lsa ham o'z xoliga qo'yish usuli ham natija berishi mumkin. Usulning ma'nosi – o'smirning xulqiga, xulq-atvor oqibatlariga o'zini mas'ul va javobgar qilish.



## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, deviant xulqli o‘smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish yani mutaxassis – ruhshunos o‘z mijoziga kerakli bo‘lgan usul va vositalarini taklif qiladiki, bu vositalar ijobiy o‘zgarishlarini olib kelsin. Albatta o‘smir bilan ruhshunos hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun oradagi munosabat halollikka, javobgarlikka, mas’uliyatlikka, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, hurmat qilishga asoslangan bo‘lishi lozim. “Huquq buzarlikka moyil o‘smirlarning deviant xatti-harakatini pedagogic profilaktika qilishda muammo doirasini minimallashtirish” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar asosida savolnomalar, testlar, anketa savollari ishlab chiqilib, o‘smirlarda shakllanib ulgurilgan salbiy, deviant xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablarini aniqlash, otanonalar, maktab rahbarlari, o‘qituvchilar, psixologlarga amaliy yordam sifatida quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqot tajribalarini olib borishni tavsiya qilamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI :

1. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o‘rni. //uslubiy qo‘llanma. – T. – 2008, 106-bet.
2. 3.Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). SUITSIDAL HOLAT VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от
3. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7726>
4. 4.Asliddin o‘g, Y. L. S. (2022). PSIXOLOGIK ZO ‘RAVONLIK VA
5. KIBERBULLING. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 62-66.
6. Internet ma’lumotlari